O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324

TARIX
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:94.5

Sherzod RO‘ZMETOV,
Mustaqil tadqiqotchisi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: sherzodro‘zmetov86@gmail.com. ORCID: 0000-0002-9876-0013

Dotsent, tarix fanlari doktori O. Radjabov taqrizi asosida

ELEMENTS OF ADVENTURE TOURISM WITHIN THE FRAMEWORK OF THE “SILK ROAD” TOURISM CONCEPT

Annotation

This article analyzes the formation and development prospects of adventure tourism within the framework of the “Silk Road” tourism concept. The natural landscape, historical-cultural and ethnographic potential of the Silk Road territories is considered an important factor in developing adventure tourism. Particular attention is paid to integrating trekking, ecotourism, horseback riding, mountain and desert routes into a unified system of tourist destinations.

Key words: Silk Road, tourism concept, adventure tourism, trekking, ecotourism, tourist route, historical and cultural heritage, natural resources, Central Asia, tourism potential.

ЭЛЕМЕНТЫ ПРИКЛЮЧЕНЧЕСКОГО ТУРИЗМА В РАМКАХ ТУРИСТИЧЕСКОЙ КОНЦЕПЦИИ «ШЁЛКОВОГО ПУТИ»

Аннотация

В статье анализируются особенности формирования и перспективы развития приключенческого туризма в рамках туристической концепции «Шёлковый путь». Природно-ландшафтный, историко-культурный и этнографический потенциал территорий Великого Шёлкового пути рассматривается как важный фактор развития приключенческого туризма. Особое внимание уделяется интеграции треккинга, экологического туризма, конных путешествий, горных и пустынных маршрутов в единую систему туристических направлений.

Ключевые слова: Шёлковый путь, туристическая концепция, приключенческий туризм, треккинг, экологический туризм, туристический маршрут, историко-культурное наследие, природные ресурсы, Центральная Азия, туристический потенциал.

“IPAK YO‘LI” TURIZM KONSEPSIYASI DOIRASIDAGI SARGUZASHT TURIZMI ELEMENTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Ipak yo‘li” turizm konsepsiyasi doirasida sarguzasht turizmining shakllanishi va rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ipak yo‘li hududlarining tabiiy-landshaft, tarixiy-madaniy va etnografik salohiyati sarguzasht turizmini rivojlantirish uchun muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tog‘, cho‘l, ekoturizm, trekking, otliq sayohatlar va boshqa faol turizm yo‘nalishlarini yagona turistik marshrutlar tizimiga integratsiya qilish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ipak yo‘li, turizm konsepsiyasi, sarguzasht turizmi, trekking, ekoturizm, turistik marshrut, tarixiy-madaniy meros, tabiiy resurslar, Markaziy Osiyo, turizm salohiyati.

Kirish. “Ipak yo‘li” konsepsiyasi bugungi kunda nafaqat tarixiy savdo yo‘llarini tiklash, balki turli mamlakatlar va xalqlar o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va turistik aloqalarni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Qadimdan Sharq va G‘arbni bog‘lab kelgan ushbu tarixiy makon o‘zining rang-barang tabiiy landshaftlari, qadimiy shaharlar, arxeologik yodgorliklar, etnografik an’analar va mahalliy madaniyatlari bilan zamonaviy turizm uchun katta salohiyatga ega.

So‘nggi yillarda jahon turizmida turistlarning passiv hordiq chiqarishdan faol, taassurotga boy va noodatiy sayohat shakllariga bo‘lgan qiziqishi ortib bormoqda. Mazkur jarayon sarguzasht turizmining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Sarguzasht turizmi turistning tabiiy muhit bilan bevosita aloqasini, jismoniy faolligini, yangi hududlarni kashf etishini hamda tarixiy va madaniy tajribalarni boshdan kechirishini nazarda tutadi. Shu jihatdan Ipak yo‘li hududlari sarguzasht turizmini rivojlantirish uchun qulay geografik va madaniy makon hisoblanadi.

Markaziy Osiyo hududida tog‘li va cho‘l zonalarining mavjudligi, Amudaryo va Sirdaryo havzalari, Tyanshan va Pomir-Oloy tog‘ tizimlari, Qizilqum va Qoraqum cho‘llari, tarixiy karvon yo‘llari hamda qadimiy shaharlar sarguzasht turizmining turli shakllarini rivojlantirish imkonini beradi. Xususan, trekking, alpinizm, tog‘ velosporti, otliq sayohatlar, jeep-tour, cho‘l safari, rafting, speleoturizm va ekoturizm kabi yo‘nalishlarni “Ipak yo‘li” turistik marshrutlari bilan uyg‘unlashtirish mumkin.

O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlari bilan bir qatorda Hisor, Boysun, Zaamin, Chortoq, Ugam-Chotqol va boshqa hududlarning tabiiy hamda etnografik imkoniyatlari ham sarguzasht turizmi uchun muhim resurs hisoblanadi. Shu sababli “Ipak yo‘li” konsepsiyasini faqat tarixiy-madaniy turizm bilan chegaralab qo‘ymasdan, uning tarkibiga faol va sarguzasht turizmi elementlarini kiritish turistik mahsulotning diversifikatsiyasiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi “Ipak yo‘li” turizm konsepsiyasi doirasida sarguzasht turizmi elementlarining o‘rnini aniqlash, uning tabiiy, tarixiy-madaniy va etnografik resurslar bilan bog‘liqligini tahlil qilish hamda istiqbolli turistik yo‘nalishlarni shakllantirish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Sarguzasht turizmi masalalarini o‘rganishda, avvalo, turizmning mazmun-mohiyati, turistlarning xulq-atvori, faol dam olish shakllari va tabiiy muhitdan foydalanish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tadqiqotlarda

sarguzasht turizmi ko‘pincha jismoniy faoliyat, tabiat bilan bevosita aloqa, yangilik va ma’lum darajadagi xavfni o‘z ichiga oluvchi turistik faoliyat sifatida izohlanadi.

Sarguzasht turizmi nazariyasining rivojlanishida faol turizm, ekoturizm va tabiat turizmi konsepsiyalari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlarda turistning tabiiy muhit bilan o‘zaro munosabati, hududning rekreatsion imkoniyatlari va turistik mahsulotning o‘ziga xosligi asosiy tadqiqot obyektlari sifatida qaraladi.

“Ipak yo‘li” turizmini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarda esa tarixiy savdo yo‘llarining turistik marshrut sifatidagi imkoniyatlari, madaniy meros obyektlaridan foydalanish, transmilliy turistik yo‘nalishlarni yaratish va turizm orqali mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarda asosan tarixiy shaharlar, arxeologik yodgorliklar, me’moriy obidalar va madaniy meros obyektlariga e’tibor qaratilgan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda “Ipak yo‘li” va sarguzasht turizmining o‘zaro integratsiyasi yetarlicha kompleks tarzda o‘rganilmagan. Ayniqsa, tarixiy karvon yo‘llarini zamonaviy trekking, otliq sayohatlar, tog‘ turizmi, cho‘l safari va ekoturizm yo‘nalishlari bilan birlashtirish imkoniyatlarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir.

Markaziy Osiyo bo‘yicha tadqiqotlarda mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti, tog‘li hududlari, cho‘llari, milliy bog‘lari va tarixiy-madaniy merosi turizmni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida qayd etiladi. Biroq sarguzasht turizmini “Ipak yo‘li”ning yaxlit turistik brendi bilan bog‘lash, uning transchegaraviy marshrutlarini ishlab chiqish va turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish masalalari yanada chuqurroq ilmiy izlanishlarni talab qiladi. Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili “Ipak yo‘li” turizm konsepsiyasining tarixiy-madaniy yo‘nalish bilan bir qatorda faol va sarguzasht turizmi uchun ham katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa mazkur yo‘nalishni kompleks tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda “Ipak yo‘li” turizm konsepsiyasi doirasida sarguzasht turizmi elementlarini aniqlash va ularning rivojlanish imkoniyatlarini baholash uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi.

Birinchidan, tarixiy-qiyosiy metod yordamida qadimgi Ipak yo‘li faoliyati, uning asosiy tarmoqlari va zamonaviy turistik marshrutlar o‘rtasidagi tarixiy-geografik bog‘liqlik tahlil qilindi. Bu metod orqali tarixiy karvon yo‘llarining bugungi turistik yo‘nalishlarga aylantirilish imkoniyatlari o‘rganildi.

Ikkinchidan, tizimli yondashuv asosida Ipak yo‘li turizmi tarixiy-madaniy, tabiiy, iqtisodiy va infratuzilmaviy komponentlarning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rib chiqildi. Sarguzasht turizmi ushbu tizimning faol turistik mahsulot yaratishga xizmat qiluvchi tarkibiy elementi sifatida baholandi.

Shuningdek, SWOT-tahlil yondashuvi orqali Ipak yo‘li doirasida sarguzasht turizmini rivojlantirishning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy xavflari tizimlashtirildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarini umumlashtirish va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. 2017-yilda CAREC tashkilotiga a’zo mamlakatlar tashqi ishlar vazirlarining 16-yig‘ilishida Markaziy Osiyo mintaqasida 2030-yilgacha transport, savdo va energetika sohalarini yangi formatda rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi. Shuningdek, dastur doirasida turizm bo‘yicha mintaqaviy hamkorlikni rag‘batlantirish va takomillashtirish masalasi ham tahlil qilinib, CARECga a’zo 11 davlat tomonidan “CAREC Turizm strategiyasi 2030” konsepsiyasi qabul qilindi. Konsepsiyaning Markaziy Osiyo davlatlari uchun tegishli bandlari “Ipak yo‘li” loyihasi deb nomlandi[1].

Qayd etish lozimki, turizmni rivojlantirish va mintaqadagi turizm sohasidagi hamkorlik bo‘yicha har tomonlama va samarali mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqishda beshta boshqaruv prinsipi asos qilib olingan. Ular ekologik, ijtimoiy va madaniy barqarorlikni ta’minlash maqsadida miqdor emas, balki sifatga ustuvorlik berish, global tendensiyalarga moslashish va barqarorlikni kuchaytirish uchun har bir davlatning turistik mahsulotlarining noyobligini ilgari surish, shu bilan birga yangi global va mintaqaviy voqealarga samarali javob berish imkonini beruvchi mintaqaviy sinergiyani shakllantirish, mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirish va hududlarning salohiyatini kengaytirish, fasllarga bog‘liq bo‘lmagan (ko‘p faslli) turizmni rivojlantirish, mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va ko‘p davlatlarni qamrab oluvchi sayohatlarni ilgari surish orqali mavsumiylik muammosini bartaraf etish hamda mintaqada yil davomida biznes uchun imkoniyatlar yaratish hamda Ipak yo‘li bo‘ylab CAREC turizm tarmog‘ini rivojlantirish hamda turistik klasterlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda kompleks va bosqichma-bosqich yondashuvni qo‘llash kabilardan iborat[2].

Ustuvor hisoblangan yetti klaster guruhi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Kaspiy mintaqasi – Gruziya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Turkmaniston hududlarini qamrab oladi. Markaziy Osiyoning yuragi – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi, Turkmaniston, Tojikiston va Afg‘onistonni o‘z ichiga olgan hudud. Olmaota–Bishkek klasteri – Olmaota–Bishkek iqtisodiy koridori va Tyanshan tog‘ tizmasining bir qismini o‘z ichiga olib, Qozog‘iston, Qirg‘iz Respublikasi hamda Xitoy Xalq Respublikasining Shimoliy Shinjon (Sintszyan) hududlarini qamrab oladi. Oltin sohil – Pokistonning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan. Karakorum–Vaxon klasteri – Afg‘onistonning sharqiy qismi, Tojikistonning janubi-sharqiy qismi, Pokistonning shimoli va Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoning shimoli-g‘arbiy qismlarini o‘z ichiga oladi. Oltoy klasteri – Qozog‘iston, Mo‘g‘uliston va Xitoy Xalq Respublikasining tegishli hududlarini qamrab oladi. Va eng oxirgi Gobi va dashtlar klasteri – Mo‘g‘uliston va Xitoy Xalq Respublikasining Ichki Mo‘g‘uliston avtonom rayoni hududlarini o‘z ichiga oladi[3]. Markaziy Osiyoning qardosh beshta respublikasi mazkur yettita klasterdan beshtasini qamrab oladi.

Qozog‘istonning Olmaota shahri, shuningdek, Qirg‘izistondagi Bishkek va Issiqko‘l atrofidagi hududlar CAREC dasturi bo‘yicha Olmaota-Bishkek iqtisodiy yo‘lagi (ABEC) deb nomlandi va 2014-yildan buyon tajriba iqtisodiy koridor sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Bu yerda tarixiy va sarguzasht turizmi resurslari mavjud.

2019-yil dekabr oyida Osiyo Taraqqiyot Banki ko‘magida “Olmaota-Bishkek iqtisodiy koridorining turizmni rivojlantirish Bosh rejasi” tayyorlandi va chop etildi[4].

Bosh rejaga muvofiq, 2017-yilda ABECga 8,4 million sayyoh tashrif buyurdi. Asosiy holatda, 2040-yilga kelib, tashrif buyuruvchilar soni 14 millionga yaqin sayyohni tashkil qiladi. Biroq, turizm siyosatini isloh qilish, davlat va xususiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish, Olmaota va Bishkek o‘rtasidagi qatnov vaqtini qisqartirish va Olmaota aeroportining havo xab funksiyasini oshirish orqali tashrif buyuruvchilar sonini 23 million turistga yetkazish maqsad qilingan.

Bosh rejaning yakuniy qismida turizm siyosatini isloh qilish va davlat-xususiy investitsiya loyihalari uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar ko‘rsatilgan bo‘lib, ular mahalliy va xorijiy mamlakatlarni ko‘proq jalb qilish uchun bazaga qo‘shilishi belgilangan. Yakuniy hisob-kitoblarga ko‘ra, mazkur klasterni takomillashtirish uchun 3,25 mlrd.AQSH dollari miqdorida investitsiyalar talab qilinmoqda.

Kaspiy mintaqasi klasteri (Gruziya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Turkmaniston) orqali esa Ipak yo‘li bo‘ylab turistik va transport tarmoqlari barqarorlasha boshlagan. 2023–2024 yillarda, Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan CAREC Tourism Working Group capacity-building seminarida “Visit Silk Road” markali portal va brend strategiyalari bo‘yicha hamkorlik, regional viza yengilliklari va markaziy turizm agentligi tuzilmasi muhokama qilindi[5]. Qozog‘istonda Trans-Kaspiy yo‘nalishining yanada faol ishlatila boshlandi. Bu esa o‘z navbatida transport samaradorligini sezilarli darajada oshirgan. Turkmanistonda Ashxobad–Turkmanbashi va Ashxobad–Turkmanabad yo‘nalishidagi magistral yo‘l infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha 2025 yildan boshlab qurilish ishlari boshlangan bo‘lib, 2029 yilda foydalanishga topshirilishi belgilangan. Bu esa tranzit va logistika orqali turizm salohiyatini oshiradi.

Shuningdek, “Visit Silk Road” portal va brendi tashkil etildi: marketing, brend yondashuvi va raqamli platforma orqali mintaqaning turizm mahsulotlari targ‘ib qilindi. Viza yengilliklari bo‘yicha Silk Road vizasi, raqamli nomadlar vizasi va "My Second Home" kabi tashabbuslar muhokama qilinib, vizaviy talablarni moslashtirish masalasi ko‘rib chiqilmoqda.

Klaster bo‘yicha 2024-yilda Turizm Ishlab Chiquvchilar Guruhining (Tourism Working Group) treynerlik tadbirlari bo‘lib o‘tdi. Bunda sayyohlik xizmatlarini takomillashtirish, sifat nazorati va jamoatchilik bilan ishlash bo‘yicha tajriba almashildi[6].

Klaster tarkibiga kiruvchi Qozog‘istonda 2025-yilga borib 12 million sayyohni qabul qilish (2,5 millioni xorijiy) maqsadi qo‘yilgan. Shuningdek, agro-rural va ekoturizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan 125 ta loyiha tasdiqlandi va 500 mlrd tenge atrofida sarmoya ajratilgan. Turkmaniston Respublikasida esa infratuzilma loyihalari, jumladan, yangi magistral yo‘llar qurilishi davom etmoqda. 2025-yildan keyingi bosqichlarda bu yo‘llar orqali turizm va tranzit salohiyati oshishi kutilmoqda.

“Markaziy Osiyoning yuragi” (Central Asia Heart) klasteri – ya’ni O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Afg‘onistonni qamrab olgan mintaqa bo‘yicha 2019–2025-yillarda turizm va infratuzilma sohasida amalga oshirilgan asosiy chora-tadbirlar tashkiliy va amaliy ko‘rinishlarda bo‘ldi.

Qirg‘izistonda Bishkek–Olmaota yo‘li qayta qurildi, Osh–Sarytash–Irkeshtam va Bishkek–Torugart yo‘llari modernizatsiyalandi. Natijada Qozog‘iston va Xitoyga aloqalari yaxshilandi. O‘zbekiston–Qirg‘iziston–Xitoy temir yo‘li loyi-hasi rasman 2024-yilda boshlangan, 523 km uzunlikdagi liniya 2029 ga borib yakunlanadi deb rejalashtirilmoqda. O‘zbekiston–Afg‘oniston–Pokiston temir yo‘li loyihasi bo‘yicha 2023-yilda memorandum imzolandi Mazkur 573 km masofali temir yo‘l transport-logistikasini sezilarli darajada kuchaytiradi.

2024-yilda Tojikiston Respublikasining Xo‘jand shahrida hamda Qirg‘iziston Respublikasining O‘sh shahrida CAREC tomonidan qo‘shma suv resurslarini boshqarish bo‘yicha transchegaraviy treninglar tashkil etildi. Bu esa amaliy IWRM usullarini joriy etish va mintaqalararo hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan edi[7].

2025-yilda esa Toshkent shahrida Eco Expo Central Asia 2025 ko‘rgazmasi tashkil qilindi. Unda CAREC O‘zbekiston ofisi “One Health”, iqlim moslashuvi va barqaror rivojlanish bo‘yicha faoliyatlarini namoyish qildi. Natijada mintaqaviy tajriba almashinuvi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kuchaydi. Shuningdek, “Visit Silk Road” brendi platforma yordamida mintaqaviy turizmni reklama qilish, vizaviy tartiblarni yengillashtirish va marketing yondashuvlarini birlashtirish boshlandi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Ipak yo‘li” turizm konsepsiyasi doirasida sarguzasht turizmini rivojlantirish uchun katta tabiiy, tarixiy-madaniy va etnografik imkoniyatlar mavjud. Ipak yo‘lining tarixiy geografiyasi zamonaviy turizm uchun tayyor madaniy platforma vazifasini bajarishi bilan birga, uning atrofidagi tog‘, cho‘l, vodiy va boshqa tabiiy hududlar faol turizm shakllarini rivojlantirish imkonini beradi.

Sarguzasht turizmini “Ipak yo‘li” turistik mahsulotiga integratsiya qilish, avvalo, turistik yo‘nalishlarning diversifikatsiyasini ta’minlaydi. Tarixiy obidalarni tomosha qilish bilan chegaralanmagan, balki trekking, otliq sayohat, tog‘ turizmi, cho‘l safari, ekoturizm, velosayohat va boshqa faoliyatlarni o‘z ichiga olgan kompleks marshrutlar turistlar uchun yanada jozibador mahsulot yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Содействие региональному сотрудничеству в сфере туризма в рамках ЦАРЭС 2030: Предпроектное исследование. Манила. АБР. 2019. -С. 11.
2. Барометр международного туризма. Мадрид: Всемирный банк. Открытые данные Всемирного банка (по состоянию на 10 августа 2020 г. -С.64.
3. Содействие региональному сотрудничеству в сфере туризма в рамках ЦАРЭС 2030: Предпроектное исследование. Манила. АБР. 2019. -С. 14.
4. Global Wellness Summit. 2019. Global Wellness Trends Report. Miami. P.49.
5. Elektron resurs: https://www.apta.uz/en/news/796?utm_ Murojaat qilingan sana: 20.08. 2024.
6. Elektron resurs: https://www.unwto.org/technical-cooperation/carec-tourism-working-group-meeting-on-capacity-building-in-the-tourism-sector-at-the-regional-level? Murojaat qilingan sana: 20.08. 2024.
7. Elektron resurs: https://centralasiaclimateportal.org/carec-conducted-a-transboundary-training-in-khujand-for-water-management-specialists-from-uzbekistan-and-tajikistan/? Murojaat qilingan sana: 20.08. 2024.
8. Elektron resurs: https://ctd.tj/en/2023/04/19/tourism-development-strategy-in-the-republic-of-tajikistan-for-the-period-up-to-2030/ Murojaat qilingan sana: 12.07. 2024.
9. Elektron resurs: https://en.trend.az/casia/tajikistan/3708672.html? Murojaat qilingan sana: 01.08.2025.
10. Elektron resurs: https://www.stat.tj/en/number-of-foreign-tourists-increased-by-15-8-percent/? Murojaat qilingan sana: 12.07. 2024
11. Elektron resurs: https://www.asu.ru/en/news/events/54309/ Murojaat qilingan sana: 12.07. 2024.